

1. Texnologik jarayon va struktura sxemaning tavsifi
2. Avtomatik rostlanadigan, nazorat qilinadigan va signallashtiriladigan parametrlarni tanlash va asoslash
3. Avtomatlashtirishning funksional sxemasining tavsifi
4. Printsipial elektr sxemalarning tavsiflari
5. Umumiy shit va boshqaruv pulti sxemalarining tavsiflari
6. Avtomatik rostlashni modellashtirish, uning hisoblari, sifat ko'rsatkichlarining tavsiflari
7. Nazorat-o'lchov asboblarning va avtomatika vositalarining spesifikasiyasi hamda tavsiflari
8. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning texnik-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari
9. Hayot faoliyati havsizligi va mehnat muhofazasi
- Xulosa
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Yurtimizda va jahonda bugungi kunda resurslar chegaralangan va ehtiyojlar cheksiz bir davrda har bir resursdan iloji boricha unumli foydalanish zamon talabi hisoblanadi. Foydalanilayotgan buyum, predmet, energiya bo'ladimi uning imkoni boricha foydali ish koeffitsientini oshirish, raqobatbardosh maxsulotlarni oshirish zamonaviy iqtisodiyotning talabi hisoblanadi. Albatta har qanday moddiy ne'mat yoki ishlab chiqariluvchi maxsulot yoki tovar va taklif etilayotgan hizmatning ortida oldingi o'rinlarda iqtisodiy samara, foyda olish maqsadlari bilan bir qatorda insoniyat uchunyengillik yaratish, uningishlarini osonlashtirish kabi oliy maqsad ham bo'ladi. Bu bugungi kunda ham zamonaviy fan texnika rivojlangan jamiyatda yashashimizga qaramasdan o'z aktualligini yo'qotmagan, boz ustiga yanada dolzarblik borasida chuqurlashib va kengayib boruvchi mavzu bo'lib qolaveradi. Har bir sanoat tarmog'i, har bir ishlab chiqarish qismi vaholanki har bir xonadon darajasida ham chuqurlashishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyayevning «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarorini ijro etish hamda mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, bakalavr va magistr larni tayyorlashda ish beruvchilarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini inobatga olgan holda son va ta'lim yo'nalishlari uyg'unligiga erishish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mehnatidan foydalanishni yaxshilash, shuningdek, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishning o'rtacha muddatga mo'ljallangan maqsadli dasturlarini joriy etish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyayevning qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan yuksak manaviyatli, malakali kadrlar tayyorlash va sanoat korxonalarimizni jahon bozorlariga olib chiqish, raqobatbardosh maxsulotlar ishlab

chiqarish va ularning iqtisodiy samaradorliklarini oshirish maqsadida xalqaro talablarga javob beradigan texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan.

Bajarilayotgan diplom loyihasining asosiy maqsadi avtomobil o'rindiqlari karkaslaridan biri Rear Back Panelni ishlab chiqarishda payvandlash robotini tadqiq qilib, uning imkoniyatlarini va kamchiliklarini o'rganish hamda payvandlash jarayonida payvandlash simi sarfi nazoratini tekshirishdan iborat. Bularni amalga oshirish uchun servomotor va nazorat qiluvchi kontroller ishlashi prinsipial sxemasi o'rganildi.

Diplom loyihasining ob'yekti sifatida "Uz-Tong Hong Ko" qo'shma korxonasi olingan bo'lib, korxonadagi payvandlash uchastkasidagi payvandlash dastgohida payvandlashni nazoratini boshqarishni o'rganish, payvandlash dastgohini avtomatik boshqarish va mavjud nosozliklarni bartaraf etish.

Diplom loyihasining predmeti.

Dastlab payvandlash dastgohida sifatli mahsulotga ega bo'lish uchun jarayonning bir xil ishlashini ta'minlovchi parametrlarni aniqlab olish va sifatli mahsulotni ishlab chiqarish asosan qaysi parametrlarga bog'liq bo'lishini tadqiq etish.

Diplom loyihasining tarkibi va tuzilishi

Diplom loyihasi kirish qismi, asosiy qism, hayot faoliyati xavfsizligi qismi, iqtisodiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Diplom loyihasining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, predmeti, diplom loyihasining ob'yekti hamda diplom loyihasining tarkibiy tuzilishi keltirilgan.

Mazkur diplom loyihasini bajarish davomida tanlangan mavzu va uning doirasida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan o'zining qimmatli maslahatlarini bergan "Mashinasozlik ishlab chiqarishini avtomatlashtirish" kafedrasining professor-o'qituvchilariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Texnologik jarayon va struktura sxemaning tavsifi

Payvandlash tsexi ishlab chiqarish tizimidagi 6ta sexlardan bittasi bo`lib, maxsulot ishlab chiqarish siklini ilk zanjiridir. Unda 5 ta asosiy ishlab chiqarish uchastkalari mavjud bo`lib ular CO2, Guide Rail-Recliner, Nuqtaviy payvand (SPOT), Robot-1 va Robot-2 uchastkalaridan iborat. Robot-1 uchastkasida payvandlash robotlari joylashgan bo`lsa, Robot-2 uchastkasida truba bukish, trubaga shakl berish va presss liniyalari mavjud. Robot-1 uchastkasida 20ta payvandlash robotlari mavjud.

Dastlab payvandlash konduktoriga payvandlanuvchi detallar mos ravishda terib chiqiladi. So`ng dastgohning start tugmasi bosiladi. Birinchi marta bosilganda konduktor detallarni qisib oladi. Ikkinchi marta bosilganda xavfsizlik pardasi yopilib robot monipulyator tomonidan payvandlash ishlari boshlanadi. Agar konduktorga detallardan biri o`rnatilmagan bo`lsa yoki detallar o`z o`rniga to`liq tushmagan va qisqichlar to`liq yopilmagan bo`lsa Error tugmasi yonib ovozli signal beradi. Detallar payvandlanib bo`gandan keyin robot monipulyatori o`z o`rniga qaytadi va xavfsizlik pardasi ochiladi hamda konduktor qisqichlari ham ochiladi. Operator tayyor bo`lgan karkasni konduktordan oladi va yana detallarni konduktorga o`rnatadi. Shu tarzda bu jarayon takrorlanaveradi. Agar ishlash davomida qaysidir dastgoh soz ishlashi uchun talab qilingan parametrlarda kamchilik yoki buzilishlar bo`lsa va qaysidir sensor yoki kontrollerlar yaxshi ishlamasa dastgoh avtomatik tarzda to`htaydi. Payvandlash dastgohlari turli o`lchamdagi karkaslarni payvandlagandan so`ng karkaslar SUB (yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlovchi uchastka) uchastkasiga yetkazib beriladi. Karkaslar mahsus taralarda va aravalarda saqlanib birinchi kirib kelgani birinchi chiqib ketadi tamoyili asosida(FIFO-first in first out) o`rindiqlarni yig`ish tsexining SUB uchastkalariga yetkazib beriladi. Payvandlash dastgohlarining asosiy vazifasi o`rindiq karkaslarini talab qilingan miqdorda

hamda sifatli qilib yig'uv tsexining uchastkalarini o'z vaqtida ta'minlashdan iborat. Karkaslar mahsus aravalarga model va opsiyalariga qarab alohida ajratilgan holatda tahlil va saqlanadi. Karkaslarni mahsus aravalarda me'yordan ortiq qilib tahlil qo'yish mumkin emas. Saqlanayotgan karkaslar yig'uv tsexi uchastkalariga ishchilar tomonidan mahsus aravalarda kunlik ishlab chiqarish rejalariga qarab har bir smena davomida MIN-MAX(minimum-maksimum) tamoyiliga amal qilgan holatda yetkazib beriladi.

Korxonadagi dastgohlar va liniyalar elektr, pnevmo va gidravlik parametrlar asosida ishlaydi. Ular gidravlik bosim hosil qiluvchi dvigatel, boshqaruv paneli, isitish va sovutish qismlari, pnevmatik bosim hosil qiluvchi kompressorlar va servomotorlar kabi qo'shimcha qurilmalardan tashkil topgan.

Strukturaviy sxema avtomatik tizimni tashkiliy qismlarining o'zaro bog'lanishlarini ko'rsatib, ularning dinamik xususiyatlarini tavsiflaydi.


Bu sxema loyihalashda eng avval tayyorlanib, texnologik ob'yekt va boshqarish sistemasi bilan dastlabki tanishish uchun kerak bo'ladi. Struktura sxemasi ko'rsatma material RM4-4-85 talablari asosida bajariladi. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash bosqichida boshqarishning texnologik ob'ektlari mufassal tahlil qilinishi kerak. Bunda ishlab chiqarish jarayonini texnik jihozlash va texnologiya, xomashyo va tayyor maxsulot sifati, jarayonni boshqarishni tashkil etish nuqtai nazaridan tadqiq etishni ko'zda tutish lozim. Tahlil jarayonida aniq ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari o'rganiladi, jarayonni ifodalovchi kattaliklar aniqlanadi, ular orasidagi o'zaro bog'lanish topiladi.

Nazorat, avtomatik rostlash va boshqarish tizimlarini loyihalash maxsus ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash bosqichida boshqarishning texnologik ob'ektlari mufassal tahlil qilinishi kerak. Bunda

tahlil tizimi bo'lishi, ishlab chiqarish jarayonini texnik jihozlash va texnologiya, xom ashyo va tayyor maxsulot sifati, jarayonni boshqarishni tashkil etish nuqtai nazaridan tadqiq etishni ko'zda tutish lozim. Tahlil jarayonida aniq ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari o'rganiladi, jarayonni ifodalovchi kattaliklar aniqlanadi, ular orasidagi o'zaro bog'lanish topiladi.

Strukturaviy sxemalar funktsional va prinsipial sxemalar asosida ishlanadi. Strukturaviy sxemada aniq vosita, rostlagich, element ko'rsatilmasdan, balki o'tayotgan fizikaviy jarayon ko'rsatiladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Texnologik jarayon struktura sxemasi

Yoyli payvandlashning guruhli nazorat hamda boshqarish tizimini ishlab chiqish uchun mini- va mikro EHMLarning turli tiplaridan foydalanishga asoslangan texnik tizimlar kompleksi ishlab chiqarilmoqda. Zaminaviy EHMLar asosida nuqtaviy va yoyli payvandlashning avomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqarilmoqda. Shuni aytish

kerakki , EHMning yagona texnik tavsiflarini amalda o`sha mashina ixtoyoroga berish afzalroq, ishonchlilik ko`rsatkichlari yuqori[12].

Misdan tayyorlangan diametri $d=1,2$ mm bo`lgan payvandlash simi plastik katushkada (20kg) o`ralgan holatida olib kelinib fidr moslamasiga o`rnatiladi. Fidrda chiqqan payvandlash simi sim to`g`rilagich(yo`naltirgich) orqali o`tib servomotorli yuritmaga uzatiladi. 1 kWtli servomotorli yuritma simni manipulyatorga uzatadi. Manipulyatordan payvandlash dastagiga uzatilgan payvandlash simi payvandlanadigan birikmaga borib yetadi va shu joining o`zida payvandlash yoyi hosil qilinib birikma bir-biriga payvandlanadi. Payvandlash simi uzatilishini servomotorli yuritma ta`minlab beradi.

Avtomatik rostlanadigan, nazorat qilinadigan va signallashtiriladigan parametrlarni tanlash va asoslash

Payvandlash - bu atomlararo kuchlarning ta`siri natijasida qattiq materiallarni biriktirish texnologik jarayoni bo`lib, bular payvandlanayotgan

qismlarda mahalliy bosim yoki birgalikdagi plastik deformatsiya natijasida hosil bo'ladi.

Atomlararo kuchlar ta'siri oqibatida birikmalar hosil qilish jarayoniga materiallarni payvandlash deyiladi. Ma'lum bo'lishicha, detal metali yuzasidagi atomlarning erkin to'yinmagan aloqalari mavjud bo'lib, bular atomlararo kuch ta'siri masofasida bo'lgan har xil atom va molekulalarni o'z ichiga oladi. Agar ikki metall detalni atomlararo kuch ta'siri masofasigacha yaqinlashtirsak, ya'ni metall ichida qanday masofada bo'lishsa shungacha, unda tutashgan yuzalarning bir butun ulanishini ko'ramiz. Birikish jarayoni energiya xarjisiz, tez, be'ihiyor, amaliy va oniy ravishda kechadi[8].

Ayrim metallar xona haroratida nafaqat oddiy tutashishda, balki kuchli qisishda ham birikmaydi. Qattiq metallarning birikishiga ularning qattiqligi xalaqit beradi. Tutashish qismiga qanchalik ishlov berilshi ham ularni tutashtirishda ko'p joylari tutashmaydi.

Birikish jarayoniga metall yuzalarining kirligi - oksidlar yog'li plyonkalar va boshqalar hamda molekulalarining absorblashgan qatlami katta ta'sir etadi.

Payvandlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bosim va qizdirish qo'llaniladi.

Haroratni oshirib borish bilan qizdirishda metall mayin bo'la boshlaydi. Metallni yanada qizdirish bilan uni suyuqlantirish mumkin; bu holatda suyuq metall hajmi umumiy payvandlash vannasi hosil qiladi.

Payvandlash davrida suyuq metall havoning azot va kislorod tarkibi bilan faol ta'sirlashadi, bu esa chok muslahkamligini pasaytiradi va nuqsonlar paydo bolishiga olib keladi.

Payvandlash zonasini havo muhitidan himoya qilish uchun hamda chok sifatini oshirish uchun kerakli bo'lgan elementlarni qo'shish uchun, metall kovakning yuza qatlamiga maxsus moddalar qoplanadi yoki kukunsimon holatida kavak o'zak ichiga presslanadi. Payvandlash zonasini havo muhitidan himoya qilish uchun inert va faol gazlar va ularning aralashmalari keng qo'llaniladi.

Payvandlash turlari:

Dastaki payvandlash. Maxsus manbadan energiya oluvchi asbob yordamida inson tomonidan bajariladigan payvandlash.

Avtomatik payvandlash. Insonning bevosita ishtirokisiz, berilgan dastur bo'yicha harakat qiluvchi mashinada bajariladigan payvand.

Yoyli payvandlash. Qizitish elektr yoyi bilan amalga oshiriladigan eritib payvandlash.

Argon yoyli payvandlash. himoya gazi sifatida argon qo'llaniladigan yoyli payvandlash.

Uglerod-kislorod gazdagi yoyli payvandlash. himoya gazi sifatida uglerod-kislorod gazi qo'llaniladigan yoyli payvandlash.

Impuls - yoyli payvandlash. Yoyni berilgan dastur bo'yicha, qo'shimcha ravishda tok impulslari bilan ta'minlaydigan yoyli payvandlash.

Avtomatik yoyli payvandlash. Yoyni qo'zg'otish, suyuqlantirilgan elektrod yoki qo'shilma metallni uzatish, buyum va yoyning nisbiy siljishi bevosita insonning ishtirokisiz, shu jumladan, berilgan dastur bo'yicha, mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi.

Nuqtali yoyli payvandlash. Elektrodni tekislikda siljitmay, alohida nuqta ko'rinishida, uning o'ziga perpendikulyar yoyli payvandlash.

Elektron-nurli payvandlash. Qizitish uchun tezlashgan elektrodlarning energiyasi qo'llaniladigan eritib payvandlash.


Lazerli payvandlash. Qizitish uchun lazer nurlanishi energiyasi qo'llaniladigan eritib payvandlash.

Ustiga payvandlash. Metall qatlamini, buyum sirtiga bosimni qo'llab payvandlash vositasida, surtish.


Kontaktli payvandlash. Elektr toki o'tishida payvandlanayotgan qismlarning o'zaro kontaktida ajralib chiqadigan issiqlik qo'llaniladigan, bosim bilan payvandlash.

Uchma-uch kontakt payvandlash. Payvandlanayotgan qismlarning birikishi ulanayotgan yon sirt yuzalari bo'ylab ro'y beradi.

Nuqtali kontakt payvandlash. Payvandlash birikmasi, siqilish uchini uzatuvchi, elektrodning yon sirlari o'rtasida hosil bo'ladigan kontaktli payvandlash.



2.1- rasm. Eritib payvandlash chizmasi. payvandlash chizmasi.



2.2- rasm. Bosim ostida

Elektr-shlak payvandlash usullari

Elektr-shlak payvandlashni uch usul bilan bajarish mumkin, har bir usul o'z mohiyati va qo'llanish sohasiga ega.

1) Simli elektrodlar bilan payvandlash. Diametri 3 – 5 mm bo'lib, payvandlash tirqishiga tok uzatuvchi misli maxsus mushtuklar uzatiladi(4-a rasm). Shu bilan birga shlak vannasiga uchtagacha elektrod simi uzatiladi, bu bilan uch


fazali ta'minlash manbalarini ishlatish mumkin bo'ladi. Shlak vannasida issiqlik ajralishi, asosan, elektrod atrofida bo'lganligi hisobiga, bitta elektrod simi ishlatilganda payvandlanayotgan metallning maksimal qalinligi 60 mm ni tashkil etadi, uchta sim qo'llanilganda – 200 mm gacha. Agar mushtuklarga tirqishda v_k tezlik bilan ilgarilanma-qaytma harakat bilan ta'sir etsa, payvandlanayotgan qirralar qalinligi 2,5 baravar kata bo'lishi mumkin.

Katta kesimli elektrodlar bilan payvandlash payvandlash tirqishiga uzatib bajariladi (4-b rasm). Elektrod sifatida 1-1,2 mm qalinlikdagi tasmalar yoki 10-12mm qalinlikdagi va uzunligi chok uzunligining uch baravariga teng bo'lgan plastinalar qo'llanilishi mumkin. Bitta plastinali elektrod bilan 200 mm gacha qalinlikda bo'lgan metallar payvandlanadi, uchta elektrod bilan 800 mm gacha , $v_c=1,2-3,5$ m/soat bilan payvandlanadi.

Yuqoridagi ikki usul ham nisbatan uncha qalin bo'lmagan metallarni payvandlashda ishlatiladi. Payvandlash tirqishida mavjud harakatdagi mushtuklar yoki plastinalar detallar qirralarida qisqa tutashuvlarga olib kelishi mumkin, bu o'z navbatida payvandlash jarayoni barqaror kechishiga xalaqit beradi. Tok o'tkazuvchi mushtuklarning quvurchalari tez yeyilishi payvandlash qurilmalariga xizmat ko'rsatishni qiyinlashtiradi va narxi baland bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin hamda jarayon barqaror kechishiga salbiy ta'sir ko'satadi. Plastinali elektrodning uncha katta bo'lmagan uzunligi payvand choklarning uzunligini cheklab qo'yadi.

2) **Eriydigan mushtuklar bilan payvandlash.** Eriydigan mushtuklarni payvandlash tirqishida harakatsiz joylashish holatida payvandlashning bajarilishi (4-d rasm) ko'rsatilgan. Payvandlash uchun qo'shimcha ashyo yetmay qolganda payvandlash simidan tayyorlangan 3 mm diametrli elektrod simlarini ingichka quvurchali yoki spiralsimon o'ralgan kanallar orqali uzatish natijasida qo'shimcha ashyo yetkazib beriladi. Bitta mushtuk orqali elektrod simini baravariga oltitagacha uzatish mumkin. Bunday mushtuklar bilan metallarni 500 mm qalinligigacha

payvandlash mumkin, ikkita mushtuklar bilan - 1000 mm gacha, uchta mushtuklar bilan - 1500 mm gacha bo'lgan qalinlikda metallar payvandlanadi. Bu usul elektr-shlak payvandlashning oldingi ikki usulining kamchiliklarini bartaraf etib, imkoniyatlarini kengaytiradi. Eriydigan mushtuklar yordamida elektr-shlak payvandlashni qo'llash bilan turli qalinlikda va murakkab kesim shakllarda bo'lgan metallarni biriktirish mumkin[8].



2.3-rasm. Elektr-shlak payvandlash usullari: a) simli elektrodlar bilan; b) plastinali elektrodlar bilan; d) eriydigan mushtuk bilan; 1 – elektrod simi; 2 – plastinali elektrod; 3 – eriydigan mushtuk; 4 – uzatish mexanizmi; 5 – qoliplovchi qurilma; 6 – shlakli vanna; 7 – erigan metal vannasi; 8 – paynadlanayotgan metal.

“Uz Tong Hong Ko” korhonasidagi payvandlash jarayonida Uglerod-kislorod gazdagi yoyli payvandlash (CO_2) turidan foydalaniladi. Payvandlash jarayonini inson qo'l mehnatisiz avtomatik bajarish uchun sanoat robotlaridan foydalaniladi. Bunda ABB robotlaridan foydalaniladi.

Tizimda payvandlanuvchi konstruksiyasiga, qotishma markasiga, payvandlash mashinasiga va payvandlash tartibining berilgan siklogrammasiga bog'liq holda tartibning turli parametrlarining nazoratini ta'minlashi mumkin:

- Payvandlash toki (amplitude, ta'sir yoki o'rtacha qiymatlari);
- Siqilgan elektrodning payvandlash kuchi;
- Siqilgan elektrodning bolg'alash kuchi;
- Payvandlash vaqti, bolg'alash vaqti;
- Payvandlash simi sarfi va boshqalar.

Bundan tashqari, jarayonning umumlashgan parametrlari nazoratini amalga oshiradi: elektrodlar orasidagi kuchlanish; payvandlashda elektrodlar orasida ajralayotgan energiya; elektrod-elektrod sohasi qarshiligi; payvandlash vaqtida metallning issiqlik kengayishi (dilatometriya) va shu kabilar.

Tizimning o'lchash qismi, shunday qilib, uning vazifasiga bog'liq ravishda tez o'zgaradi. Qurishning modulli tamoyilida lokal tizimni o'lchash, nazorat va boshqarish uchun amalda o'lchash o'zagartirgichining mos platasini almashtirish, nazorat dasturini to'g'rilash va jarayonni boshqarish yo'li orqali parametrlarni istalgan to'plami bilan oson qayta quriladi. Prinsipial sxema va konstruksiya o'zgarishsiz qoladi.

Elektropnevmoklapanli va turli pereklyuchatellar(MTK va MTPT mashinalari uchun payvandlash toki impulse qutbliligi)ga ega boshqarish bloki MT, MTK, MTPT, MTB tipli maksimal murakkab universal kontaktli mashinani hisobga olib ishlab chiqarilgan. Payvandlash mashinasi tipiga va tartib siklogrammasiga bog'liq holda razryadlarni boshqaruvchi qismi ishlatilmasligi mumkin.

Apparaturali ortiqchalilik bilan kuch to'g'rilagichlariga ega boshqarish bloki ishlab chiqilgan. Blok platasiga faqat o'sha mikrosxemalar, ya'ni to'g'rilagichning ko'rilayotgan tipdakisini boshqarish zarur bo'lgan sxemalar.

Jarayonni boshqarish va nazorat qilish moslamasi va tartibi parametrlarini berish bloki klaviatura yoki 10 pozitsiyali pereklyuchatellar to`plami ko`rinishida bajarilishi mumkin. Ikkinchi variant ekspluatatsiyada soddaroq va payvandlash mashinasi ishining berilgan siklogrammasini nazorat qilish uchun aniqligi ko`proq, qachonki berilgan ustavlar uncha katta bo`lmasa qo`llab koramiz.

Payvandlash mashinasining tashqi boshqairish pultida elektrodnlarni tozalashda ularni tushurish yoki ko`tarish , tok bilan yoki toksiz payandlash siklini bajarish, cosj ni tekshirish va x.k. buyruqlari beriladi. LSU ta'minoti ulangan vaqtda boshqarish muloqot dasturiga uzatiladi, dastur yordamida klaviaturadan o`qish yoki jarayonni boshqarish va nazorat qilish moslamalari hamda tartib parametrlarining 10ta pozitsiyali pereklyuchatellarni ulashni amalga oshiradi. Shuningdek texnologik jarayon ketishi haqidagi ma'lumotlarni chiqarish va ustavlarni kiritishga talab signalini va pultini so`rovini amalga oshiradi, bu so`rov yuqori darajali ЭBM beriladi.

Ulangan vaqtda tizim payvandlash mashinasining texnik holatini diskret datchillar bo`ylay tekshiradi va mashina shikastlanganlik, buzilganlik holatida payvandlashni to`xtatadi. Agar mashina ishga yaroqli bo`lsa u holda 20ms interval bilan boshqarish signallarini elektropnevmoqlapanlar, pereklyuchatellar va kuch to`g`rilagichiga berilgan siklogrammani qayta ishlash uchun berishni, shuningdek tartib parametrlarini o`lchashni amalga oshiradi. Boshqarishning berilgan algoritmiga qarab payvandlash tartibi to`g`rilanadi. Jarayon yakunlangach payvand bog' sifatini oldindan aytib berish, rostlash algortimini soddalashtirish, payvand bog' sifati haqidagi ma'lumotlar va tartib parametrlarni berish tabloda amalga oshiriladi.

Payvandlash parametrlaridan biri **payvandlash yoyi** hisoblanadi.


Payvantlash yoyining lozim bo'lgan tok turi va tok kuchi bilan ta'minlovchi qurilma payvandlash yoyining ta'minlash manbai deyiladi.

Ta'minlash manbai va payvandlash yoyi o'zaro bog'langan energetika tizimini tashkil qiladi, unda ta'minlash manbai quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: yoyning boshlang'ich yonishi uchun sharoit yaratadi, payvandlash jarayonida uning turg'un yonishini ta'minlaydi va rejim parametrlarini rostlash(sozlash) uchun imkoniyat yaratadi.

Ta'minlash manbaining muhim texnik tavsifi unga yoyning u yoki bu turi bilan ishlash imkonini beradigan ta'minlash manbaining "payvandlash" klemmalaridagi kuchlanish U ning payvandlash toki I ga bog'lanishidir. Bu bog'lanish ta'minlash manbaining tashqi volt-amper tavsifi (VAT) deyiladi. Bizga ma'lum ta'minlash manbalari uchun eng xarakterli tavsiflar: tez pasayib boradigan 1, o'rtacha pasayadigan 2 va qattiq 3 tavsiflaridir (5-rasm).

Yoyning turg'un yonishi, demak, payvand chokining sifatli shakllanishi bir qator shartlarni bajarishga bog'liq. Ulardan biri – ta'minlash manbaining kuchlanishi va toki yoyning kuchlanishi va tokiga tengligidir. Bunga manbaning VAT biror nuqtada kesishganda erishish mumkin.

Masalan, agar manbaning VAT-1 dastaki yoy asosida payvandlashga tegishli bo'lgan 4,5,6 VAT bilan kesishsa, yoy turg'un bo'ladi, bu esa faqat manba tez pasayib boradigan VAT ga ega bo'lganda mumkin. Yoy bilan dastaki payvandlash jarayonida ko'pincha yoy uzunligi anchagina o'zgartirib turadi, demak, kuchlanish pasayishi ham mumkin. Bunday o'zgarishlarda VAT larning kesishgan nuqtasi, masalan, A2 nuqtasidan A3 nuqtasiga siljiydi.



2.4–rasm. Ta'minlash manbaining tez pasayib boradigan (1), o'rtacha pasayadigan (2) va qattiq (3) tavsifi bilan birga turli uzunlikdagi payvandlash yoyining volt-ampere tavsifi (4,5,6).

Bu tok kuchining ΔI ga o'zgarishiga olib keladi, u manbaining VAT qancha tez pasayadigan bo'lsa, shuncha kichkina bo'ladi. Demak, dastaki payvandlash uchun tez pasayib boradigan tavsifli manba yaxshiroqdir.

Sekin pasayib boradigan VAT manbalar plyus bilan avtomatik payvandlash uchun, qattiq VAT li manbalar himoyalovchi gazlarda suyuqlanadigan elektrod bilan yarimavtomatik va avtomatik payvandlashda qo'llanadi[6].

Bunda VAT lardan foydalanish tez pasayib boradigan VAT ga qaraganda payvandlash transformatorlaridagi nobudlik quvvatini kamaytiradi va yoyni suyuqlangan elektrodda yongandagi o'z-o'zidan rostlanish effektini kattalashtiradi. Bu effektning mohiyatini ko'rib chiqamiz: masalan, yoy uzunligi kattalashganda, elektrod metalining suyuqlanish tezligi kamayadi. Simni yuborib turish tezligi o'zgarmas bo'lganda, agar suyuqlanish tezligi kichkina bo'lsa, uning uchi buyumga yaqinlashadi. Yoy uzunligi kamayadi, tok kuchi va simning suyuqlanishi oshadi.

jarayon tok kuchi va yoy uzunligining oldingi qiymati tiklangancha davom etadi. Yoy uzunligi tebranishi bilan bu effekt kuchliroq namoyon bo`ladi, bu sekin pasayadigan va qattiq VAT li manbalarda kuzatiladi.

Servo motorni avtomatik boshqarish uchun PIC mikrokontrollerining 16F84 modelidan foydalaniladi. Bu PIC mikrokontrollerlari bir vaqtning o'zida sakkiztagacha servomotorni boshqarishi mumkin. Servomotorlarni alohida qulay boshqarish metodiga R/C tizimi egadir. U faqat shu servomotorni boshqaradi.

Avtomatlashtirishning funksional sxemasining tavsifi

Funksional sxemalar avtomatlashtirish sistemalari loyihasining asosiy texnik hujjati bo'lib, unda texnologik obyekt va avtomatik nazorat, rostlash boshqarishva shu kabi vositalari birgalikda tasvirlanadi.

Avtomatik tizimlar bir-birlari bilan ma'lum ketma-ketlikda bog'langan bo'lib, har biri tegishli vazifani bajaruvchi alohida elementlardan iborat. Mustaqil funksiyani avtomatik tizim tarkibining biror qismi avtomatika elementi deyiladi. Avtomatika elementlarini ularning funksional vazifasiga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq.

Avtomatik tizim elementlarining tarkibiga kiruvchi funksional bog'lanishni ifodalovchi sxema funksional sxema deb ataladi. Bundan tashqari, shu avtomatik tizimni turli dinamik xususiyatlariga ega bo'lgan va bir-birlari bilan bog'langan sodda bo'g'inlar shaklida tasvirlash ham mumkin. Bu holda avtomatik tizimning sxema bo'g'inlarning bog'lanishini aks ettiradi va tizimning tuzilish sxemasi deyiladi.[4]

Funksional sxemalar moslamalarni, elementlarni, vositalarni o'zaro bog'lanishlarini va xarakatlanishlarini ifodalaydi. Elementlar sxemada to'rtburchak shaklida belgilanadi, ularning orasidagi aloqalar esa strelkali chiziqlar bilan belgilanadi. Strelkaning yo'nalishi signalning o'tishini ko'rsatadi.

Funksional sxemani tayyorlashda ГОСТ 21.404-85 «Автоматизация технологических процессов. Обозначения условных приборов и средств автоматизации в схемах» dan foydalaniladi. Bu ГОСТ 21.404-85 Funksional sxemani 2 xil usulda tayyorlash mumkin. 1-si soddalashtirilgan funksional sxema. 2-si mukammal funksional sxema. Soddalashtirilgan funksional sxemada parametrlarni nazorat qilish va rostlash priborlarining xammasi bitta shartli belgi

bilan ifodalanadi. Soddalashtirilgan usul odatda boshqarishni local sistemalarida, yani rostlovchilarni sxemasini chizishda ishlatiladi.[5]

Mukammal funktsional sxema parametrlarni nazorat qilish va rostlash priborlarining xammasi aloxida - aloxida shartli belgilar bilan ifodalanadi. Xamma priborlar chizmaning pastki qismiga, maxsus to'g'ri to'rt burchaklarga joylashtiriladi.

Chizmalarning shartli belgilari ГOCT 2.780-96, ГOCT 2.782-96, ГOCT 2.784-86 asosida belgilanadi.


Funktsional sxemalarni loyihalash jarayonida quyidagi masalalar hal etiladi:
Texnologik jarayonning muqobil avtomatlashtirish hajmi aniqlanadi;

- Avtomatik tarzda nazorat, rostlash va boshqarish lozim bo'lgan texnologik parametrlar belgilanib, texnik vositalar majmuasini tanlash maqsadida ularing o'lchash chegaralari, usullari aniqlanadi;
- Masofadan va avtomatik boshqariladigan ijro mexanizmlari tanlanadi;
- Texnologik jihoz, apparat va uskunalarning avtomatik tarzda himoyava blokirovka etish uchun yetarli bo'lgan hajmi belgilanadi;
 - Asbob, avtomatika vositalari va apparaturalarini shchit va pultlariga, shuningdek, joyiga, dispatcher punktlariga joylashtirish hal etiladi.
- Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning funktsional sxemalarini ishlab chiqishda quyidagi talab va qoidalarga amal qilinadi:
- Avtomatlashtirishning texnik vositalarini tanlashda texnologik jarayonning xarakterini, jarayonning yong'inga va portlashga moyilligini, atrof-muhitning zararliligini va emiruvchiligini, o'lchanayotgan muhitning fizik-kimyoviy hossalarni va parametrlarini;
- o'lchash o'zgartkichlarining o'rnatilgan joyidan nazorat va boshqarish punktlarigacha masofasini; boshqarish sistemasiga ishonchlilik, aniqlik va tez ta'sir etish kabi talablarni hisobga olish zarur.

Texnologik jarayonning jihoz, uskuna va apparatlari chizmada 0.2 dan to 0.5 mm qalinlikda chizilib, ularning o'lchamlari orasidagi nisbat (masshtabsiz chizilgan taqdirda ham) saqlanishi kerak. Har bir uskuna oldiga uning nomi yoki (jarayon murakkab bo'lsa) arab raqamlarida pozitsion belgisi qo'yilishi lozim; harf-raqam usulini ham qo'llash mumkin, masalan: s-5, n-7, i-3, bunda harflar uskuna nomini bildiradi (s-sig'im, n-nasos, i-isitgich), raqam esa shunday apparatlar majmuasining tartib nomerini ifodalaydi.[5]

“Uz-Tong Hong Ko” korxonasida payvandlash simi sarfini avtomatik boshqarish uchun ishlab chiqarish jarayonida servomotorli yuritma aylanish chastotasini avtomatik boshqarish orqali nazorat qilinadi. Servo motorni avtomatik boshqarish uchun PIC mikrokontrollerining 16F84 modelidan foydalaniladi. Bu PIC mikrokontrollerlari bir vaqtning o'zida sakkiztagacha servomotorni boshqarishi mumkin. Servomotorlarni alohida qulay boshqarish metodiga R/C tizimi egadir. U faqat shu servomotorni boshqaradi.

Men misol tariqasida “Uz-Tong Ho Ko” korxonasida ishlatiladigan robotlar yordamida payvandlash jarayonida payvandlash simi sarfini boshqarishni misol qilib oldim (6-rasm). Funktsional sxemamizda manipulyatorga va payvandlash simini uzatish liniyalariga o'rnatilgan servomotor va datchiklarning bajaradigan vazifasiga ko'ra grafigini ГОСТ 2.780-96, ГОСТ 2.782-96, ГОСТ 2.784-86 asosida tasvirladim.



3.1-rasm. Payvandlash jarayonining funktsional sxemasi

Fidrga o'rnatilgan katushkadan chiqqan payvandlash simi simni to'g'rilovchi roliklar orasidan o'tib monipulyatorda joylashgan servomotorli uzatmaga boradi. Servo motorli uzatma payvandlash konduktoridagi payvandlanadigan detallarni payvandlash vaqtida kerakli rejimda simni uzatib turadi. Simni uzatilishini nazorat qiluvchi qurilma o'rnatilgan. U FOCT 2.780-96, FOCT 2.782-96, FOCT 2.784-86 bo'yicha garfikda belgilangan.



-belgida PI – inglizcha “pressesure indicator” so'zining qisqartmasi bo'lib bosimni tabloda ko'rsatadigan datchik hisoblanadi.



- belgidagi PE - inglizcha “pressesure element” so'zining qisqartmasi bo'lib bosimni sezadigan joyiga o'rnatilgan manometr datchigi xisoblanadi.



-Elektr dvigatellarni boshqaruvchi ishga tushirish apparaturasi; misol: magnitli ishga tushirgich.(IIME-122). Boshqarish organi sifatida PLC dan foydalanilgan. Unga kontroller va datchiklar to'g'ridan to'g'ri ulanadi.

Umumiy shit va boshqaruv pulti sxemalarining tavsiflari


Payvandlash robotining asosiy shitida magnitli ramka va aralashtirish mexanizmlarining barcha elektrotexnik komponentlari integratsiyalangan. Shitda turli xildagi elementlar joylashgan bo'lib ularni quyidagi guruxlarga ajratish mumkin: energiya taqsimlovchi, uzatish texnikasi, kuchlanish taqsimlovchi, boshqaruv tizimini ta'minlovchi, sezgir element natijalarini qayd qiluvchi va ijro organlarining boshqaruvchilari. Keyingi rasmda shitning komponentlari joylashuviga qisqacha misol tasvirlangan. Shitning yuqori qismida energiyani taqsimlovchi elektrqurilmalar joylashgan ularga saqlagich, elektrodvigatelning himoya avtomati va kontaktorlar misol bo'la oladi. 2-qatorda esa 24 v kuchlanishni boshqaruvchi saqlagich va raqamli va analogli ma'lumotlarning kirish chiqishini nazorat qiluvchi programmalshtirilgan kontroller joylashgan. Tizimni masofadan boshqarish uchun modemdan foydalanish mumkin u telefon tarmog'i orqali tizim xolatini nazorat qilib turadi. Quyidagi 7-rasmda Uz-Tong Hong Ko korxonasida payvandlash robotining boshqaruv shiti tasvirlangan.



5.1-rasm. Boshqaruv shiti


1	Saqlagichlar	9	Elektryuritma 48v doimiy tok
2	Elektrodvigatelning himoya avtomati	10	Elektroyuritma 24 v doimiy tok
3	Bog'lovchilar	11	Taqsimlagich 24v doimiy tok
4	Sezgir panel MP377 15" Touch	12	Kirish/chiqish modullari ET200
5	Tizim qizishining yarimo'tkazgichli saqlagichlari	13	Telefon adapter (TSII)
6	Tizim qizishining yarim o'tkazgichli bog'lovchilari ulagichlari	14	Klemmali bog'lanish
7	Chastota qayta ishlovchilar		
8	Asosiy o'chirgich		

Single Cabinet Controller nazoratining tugmachalari va portlari



5.2-rasm. Single Cabinet Controller

